

## TARIX DARSINI O'QITISHDA INTERFAOL USUL VA TEXNOLOGIYALAR

**Yusupova Gulniso Shukrulloyevna**

*Buxoro viloyati Jondor tumani 13-maktab tarix fani o'qituvchisi*

**Anotatsiya.** *Ushbu maqolada tarix fanini o'qitishga doir bir qancha innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanish haqida qisqacha ma'lumotlar keltirildi.*

**Kalit so'zlar.** *fikr, sabab, misol, umumlashma, poleolit, mezolit, neolit, bronza, temir, insert.*

Bugungi kunda yurtimizda har sohada turli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan ta'lif tizimida ham keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bugungi kun o'quvchisi ham ilmga chanqoq, yangilik va izlanishlarga o'ch. Bunday davr o'qituvchiman o'z ustida tinimsiz izlashni,zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o'rinni foydalanishni, darsni qiziqarli tashkil etish bilan bir qatorda AKT dan foydalana olishni talab etmoqda. Shu boisdan ushbu maqolada tarix darslarini o'qitishning bir necha interfaol usullari va texnologiyalari bilan tanishtiramiz:

"FSMU"texnologiyasi.Ushbu texnologiya orqali o'quvchining individual fikri aniqlanadi.

**F-Fikr**

**S-Sabab**

**M-Misol**

**U-Umumlashma**

Bunda o'quvchilar mavzuga yoki mavzuning biror muammoli qismiga fikr bildiradilar. So'ngra shu fikrga kelish sabablarini ayтиb o'tadilar. Fikrini misollar bilan dalillagach o'z fikriga umumlashma yasaydi. Bu texnologiya orqali har bir o'quvchining individual fikri va mavzuni o'zlashtirganlik darajasi aniqlanadi.

"Fikrla va davom ettir" metodi.Bunda o'qituvchi biror mavzu bo'yicha kalit so'zlarni boshlanishini yozib qo'yadi, o'quvchi esa kalit so'zga mos ta'rifni yozishi lozim bo'ladi. Masalan 6-sinfda "Qadimgi dunyo tarixini davrlashtirish" mavzusini o'rgatishda qo'llash mumkin.

1. Poleolit-bu
2. Mezolit-bu
3. Neolit-bu
4. Eniolit-bu
5. Bronza-bu
6. Temir-bu...

Bu usulni doskada bajartirish yoki kartochkalarga yozib tarqatma holida ham qo'llash mumkin.

"Insert"jadvali. Bu jadval ham bugungi kunda keng qo'llanilmoqda. Bunda o'qituvchi o'tilgan mavzu yuzasidan ma'lumotlarni jadval ko'rinishida tarqatma holida tayyorlaydi. Ma'lumotlar orasida to'g'ri ma'lumotlar bilan bir qatorda noto'gri ma'lumotlar, shuningdek bu

mavzuga mos kelmaydigan, hali o'tilmagan ma'lumotlar ham uchraydi. O'quvchi ma'lumotlarni o'qib jadvalga joylashtirishi lozim.

|     |                  |
|-----|------------------|
| V   | bilaman          |
| (-) | to'g'ri ma'lumot |
| (+) | yangi axborot    |
| (?) | tushunmadim      |

Yuqoridagi usul va texnologiyalarning barchasi mazmuniga ko'ra yagona maqsad sari yo'naltirilgan, ya'ni o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish va o'zlashtirish darajasini aniqlash uchundir. Darslarda bunday usul va texnologiyalardan foydalanish darsni qiziqarli tashkil etish bilan bir qatorda o'quvchilar faolligini oshiradi, individual fikrlashga o'rgatadi hamda mavzuning tez va oson o'rganilishiga yordam beradi.

Tarix darslarini tashkil etishda yangicha pedagogik texnologiyalar o'rni muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa bu borada darslarda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Dars mavzusini tushuntirayotganda ma'lum bir davrdagi muhim tarixiy voqelik ko'rsatilsa mavzuning mazmuni yanada aniq o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. Masalan: Gannibalning yurishlari Kan jangi, Zama jangi tasvirlangan videolavhalar o'quvchilarga multimedia shaklida ko'rsatilganda yanada o'zlashtirish mukammalroq bo'ladi.

Bundan tashqari, turli xil ko'rgazmalar, tarqatmalardan foydalanib mavzu ustida ishslash ham ijobjiy samara beradi. Dars jarayonida ko'pincha yangi mavzu materiallarini tushuntirib berayotganda SWOT metodidan samarali foydalanish mavzuning mazmunini mukammal ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, dars jarayonida yangi mavzuni test savollari tarzida tayyorlab, o'quvchilar bilan birgalikdan bosma tekstlar bilan ishslash ham yangi mavzuning mustahkam o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. Asosiy maqsad o'quvchi shaxsining mavzuni o'zlashtirib olishiga qaratilar ekan, qanday uslub va usullardan foydalanmaylik, asosan, ta'limning sifat samaradorligiga erishishimiz faoliyatimizning asosiy maqsadi bo'lib qolaveradi.

Tarix darslarida zamонавиъ педагогик texnologiyalar o'quvchi bilan birgalikda o'qituvchining ham mavzu ustida yanada mukammalroq ishlashiga olib keladi. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

"Kelajak-yoshlar qo'lida". Shunday ekan mustaqil fikrlaydigan, bilimli,fikrini erkin bayon eta oladigan yoshlarni tarbiyalash biz o'qituvchilarning vazifamizdir. Har bir o'qituvchi mana shu vazifani yurakdan his qilsa va bunga vijdonan yondoshsa ko'zlangan maqsadga erishiladi.Yurtimiz nomini ulug'laydigan yoshlar ko'payaveradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Yo'doshov, I.Kamolov "Tarix darslarida interfaol metodlar" metodik qo'llanma
- 2.Gaffarov YA, Gafforova M. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish usullari.T., 1996
- 3.I.A.Karimov - "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" Toshkent "Sharq" 1998
- 4.A. Sa'diyev - "Maktabda tarix o'qitish metodikasi" Toshkent. "O'qituvchi" 1988
- 5.T. Toshpo'latov, Y.G'afforov - "Tarix o'qitish metodikasi" Toshkent 2002